UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MAKTAB VA OTA-ONALAR O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLARNING TARBIYAVIY JAROYONGA TA’SIRI

Karaboyeva Maxliyo Kodirjonovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida o‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlarning kelib chiqish omillari hamda ushbu nizolarning o‘quvchi shaxsi tarbiyasiga va psixologik rivojiga salbiy ta’siri ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Muallif O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Pedagoglar maqomi to‘g‘risida”gi qonunlari hamda turk pedagog-psixologi Adem Guneshning qarashlariga tayanib, pedagogik faoliyatdagi kasbiy chegaralar, ota-onalarning huquq va majburiyatlari, muloqot madaniyati hamda o‘zaro ishonch masalalarini yoritib bergan. Maqolada maktab va ota-onalar hamkorligini tizimlashtirish, ichki reglamentlarni tatbiq etish va pedagogik madaniyatni oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: maktab va ota-ona hamkorligi, pedagogik ziddiyat (konflikt), tarbiyaviy jarayon, kasbiy chegaralar, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, emotsional charchash, muloqot madaniyati, psixologik iqlim.

Аннотация: В данной статье с научно-педагогической точки зрения анализируются факторы возникновения конфликтных отношений между учителем и родителями в общеобразовательных школах, а также негативное влияние этих конфликтов на воспитание и психологическое развитие личности учащегося. Автор, опираясь на законы Республики Узбекистан «Об образовании» и «О статусе педагогов» и взгляды турецкого педагога-психолога Адема Гюнеша, освещает вопросы профессиональных границ в педагогической деятельности, прав и обязанностей родителей, культуры общения и взаимного доверия. В статье выдвигаются предложения по систематизации сотрудничества школы и родителей, внедрению внутренних регламентов и повышению педагогической культуры.

Ключевые слова: сотрудничество школы и родителей, педагогический конфликт, воспитательный процесс, профессиональные границы, закон «Об образовании», эмоциональная усталость, культура общения, психологический

климат.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical analysis of the factors behind conflict relations between teachers and parents in general education schools, as well as the negative impact of these conflicts on the upbringing and psychological development of the student's personality. Based on the laws of the Republic of Uzbekistan "On Education" and "On the Status of Educators", as well as the views of the Turkish educator-psychologist Adem Gunesh, the author highlights issues of professional boundaries in pedagogical activity, the rights and obligations of parents, communication culture, and mutual trust. The article puts forward proposals for systematizing school-parent cooperation, implementing internal regulations, and increasing pedagogical culture.

Keywords: school-parent cooperation, pedagogical conflict, educational process, professional boundaries, Law "On Education", emotional exhaustion, communication culture, psychological climate.

Jahonda globallashuv va ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda maktab, ota-onalar va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari o'rtasidagi hamkorlik muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, maktab va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'quvchilarning tarbiyaviy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, amaliyotda maktab va ota-onalar o'rtasida turli ziddiyatlarning yuzaga kelayotgani kuzatilmoqda. Ushbu ziddiyatlar pedagogik faoliyatdagi kasbiy chegaralarning aniq belgilanmaganligi, pedagoglarning yetarli kasbiy tayyorlikka ega emasligi, ota-onalarning ta'lim jarayoniga noo'rin aralashuvi, aholida muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, huquqiy savodsizlik hamda o'zaro ishonchning sustligi bilan bog'liq. Bunday holatlar nafaqat pedagoglarning kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki o'quvchilarning tarbiyaviy rivoji, xulq-atvori va psixologik holatiga ham bevosita ta'sir etadi. Bunday holat ayniqsa MDH davlatlaridagi ta'lim tizimida ko'p kuzatiladigan kichik lekin ta'lim-tarbiya jarayoniga juda yomon ta'sir ko'rsatadigan muammolardan biridir.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ushbu jarayonda ishtirok etuvchi xodimlarning vazifa va mas'uliyatlari aniq belgilanib, jamiyatda o'qituvchilarning obro'sini oshirishga qaratilgan qonun va qarorlar ishlab chiqilib amaliyotga joriy qilindi. Shunga qarmay, pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar davom etmoqda. Aholida tizimga nisbatan ishonchsizlik kunda kunga ortib bormoqda. O'qu-

vchilarda ta’lim muhitiga nisbatan befarqlik, ishonchsizlik, intizom muammolari hamda ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2020-yil 23-sentabrdagi O‘zRQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, 2024-yil 1-fevraldagi O‘zRQ-901-son “Pedagoglar maqomi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yildagi 893-sonli qarori, Xalq ta’lim vazirligining 2026-yil 18-sonli qarorida maktab namunaviy odob-axloq qoidalari tartibga soladi. Lekin ushbu muammoni pedagogik jihatdan o‘rganish kelib chiqish sabablarini aniqlash ilmiy-nazariy tahlil olib borish, salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati hamda muammoni bartaraf etishga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalarga zarurat sezilmoqda.

Umumta’lim maktablarida pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyatlarning yuzaga kelishi bir qator ijtimoiy-pedagogik omillar bilan bog‘liq. Jumladan, ota-onalar ta’lim jarayonida farzandining manfaatlarini himoya qilishda chegara bilmaslik, aksariyat holatlarda bola oldidagi majburiyatlarini bajarmaslik orqali o‘qituvchining faoliyatiga xalaqit berish, yoki pedagogning ota-onasiga nisbatan hamkorlik emas buyruq berishi, ota-onalarning qonuniy talabini qondirishga qarshilik qilishi, bolaga nisbatan kamsitish va qo‘pol munosabatda bo‘lishi kabilardir. Ota-onalarning huquq va majburiyatlari haqida Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning 51-moddasida belgilangan. Unga ko‘ra, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarga, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga oilada ta’lim olish imkoniyatini olish; oilada ta’lim olayotgan bolaning fikrini inobatga olgan holda uning o‘qishini ta’limning har qanday bosqichida ta’lim tashkilotida davom ettirish to‘g‘risida qaror qabul qilish; ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, ta’lim tashkilotlariga xayriya yordami ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritish; ta’lim tashkilotining ustavi va (yoki) boshqa ta’sis hujjati, litsenziyasi, davlat akkreditatsiyasi to‘g‘risidagi sertifikati, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, malaka talablari, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlari bilan tanishish; ta’limning mazmuni, qo‘llanilayotgan ta’lim va tarbiya usullari, ta’lim texnologiyalari bilan, shuningdek, o‘z bolalarining o‘quv fanlarini o‘zlashtirishi natijalari bilan tanishish; ta’lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish; ta’lim tashkilotini boshqarishga doir masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Ushbu qonunda o‘qituvchilarning ham huquq va majburiyatlari keltirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, ota-onaning pedagogik faoliyatning ichki jihatlariga noo‘rin aralashishi, o‘qituvchining vakolatlaridan foydalangan holda sinfni boshqarishga urinishi, o‘qituvchini faoliyatini moni-

toring qilishi, shaxsiyatiga tegishi, qonunda belgilanmagan talablarni qo‘yishi, istalgan vaqtda chaqiruvlar, telefon qo‘ng‘iroqlariga javob berishni talab qilishi mumkin emas. Bu kabi holatlar o‘qituvchilarning kasbiy mustaqilligiga putur yetkazadi. Turk pedagogi va bolalar psixologi Adem Gunesh o‘zining “Jazosiz tarbiya” asarida bola hayotida eng muhim ijtimoiy muhit – bu ota-ona va o‘qituvchi bilan bo‘lgan munosabatlar tizimi ekanligini ta’kidlaydi. Ushbu uchlik bola shaxsiyatining shakllanishida ustun vazifasini bajaradi. Bolalar uchun bu uchlik ideal shaxs sifatida qabul qiladi. Ularning o‘zaro ziddiyati bolaga bir-birlarini xatosini ko‘rsatishi bolaning psixologik holatiga salbiy ta’sir qilishini isbotlab beradi. Uning fikriga ko‘ra, bola kattalarning munosabatini kuzatib, qadriyatlarni o‘zlashtiradi. Agar u hurmat, sabr, adolat, samimiylikni ko‘rsa, shu fazilatlar uning shaxsiyatiga singadi. Aksincha, bosim va tahqir mavjud bo‘lsa, qo‘pollik, tajovuzkorlik, ikkiyuzlamachilik kabi sifatlar rivojlanishi mumkin. Shuningdek, muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi ham ziddiyatlarni kuchaytiruvchi omillardan biridir. Ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi muloqot ko‘pincha muammo yuzaga kelgandagina amalga oshiriladi, bu esa o‘zaro ishonchning pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, ayrim ota-onalarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan talab va kutishlarining real imkoniyatlar bilan mos kelmasligi ham ziddiyatli vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Maktab va ota-onalar o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar, avvalo, pedagogik faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilar doimiy bosim va nazorat ostida ishlashga majbur bo‘lganda, ularning kasbiy motivatsiyasi pasayadi, ijodiy yondashuv cheklanadi va tashabbuskorlik susayishiga olib keladi.

Pedagoglarda kasbiy stress va emotsional charchoqning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ziddiyatli muhit maktabda sog‘lom psixologik iqlimning buzilishiga sabab bo‘ladi. O‘qituvchi va ota-ona o‘rtasidagi kelishmovchiliklar bevosita yoki bilvosita o‘quvchilar tomonidan seziladi. Natijada, maktab jamoasida o‘zaro ishonch, hurmat va hamkorlik tamoyillari zaiflashadi, ta’lim muhitida tarbiyaviy ta’sirning uzluksizligi ta’minlanmaydi. Maktab va ota-onalar o‘rtasidagi ziddiyatlar o‘quvchilarning tarbiyaviy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Bunday sharoitda o‘quvchilar pedagog va ota-ona o‘rtasidagi qarama-qarshi talablar ta’sirida qolib, ijtimoiy xulq me’yorlarini to‘g‘ri anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa intizom muammolari, mas’uliyat hissining pasayishi va maktabga nisbatan salbiy munosabat shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ziddiyatli muhit o‘quvchilarning psixologik holatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Doimiy nizolar guvohi bo‘lgan o‘quvchilarda xavotir, ishonchsizlik va emotsional beqarorlik holatlari kuzatiladi. Ayrim hollarda esa bu ho-

latlar o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va jamoada o‘z o‘rnini topish jarayonini qiyinlashtiradi.

Maktab va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni takomillashtirish uchun maktab va ota-onalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilovchi normativ hujjatlar bilan tanishtirish va ular amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

Bu ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtirok chegaralarini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ota-onalar bilan muloqotning tizimli va muntazam shakllarini yo‘lga qo‘yish, ularni pedagogik jarayonning faol, biroq, chegaralangan ishtirokchisiga aylantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik madaniyatni oshirishga qaratilgan seminarlar, treninglar va maslahatlar ota-onalarning ta’lim jarayoniga ongli va mas’uliyatli yondashuvini ta’minlaydi. Natijada, maktab va ota-onalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mustahkamlanib, o‘quvchilarning tarbiyaviy rivoji uchun qulay sharoit yaratiladi. Har bir maktabda ota-onalarning ta’lim jarayonidagi huquq va majburiyatlarini aniq belgilovchi ichki reglament ishlab chiqilishi va tarqatilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. Güneş A. Jazosiz tarbiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.
3. Rasulov A., Karimova D. Umumta’lim maktablarida pedagogik chegaralar va o‘qituvchi mustaqilligi // Ta’lim va tarbiya. – 2020. – № 4 (12). – B. 45-53.
4. Sobirov I. Maktab va ota-onalar o‘rtasidagi muloqot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Universitet, 2018.
5. Peterson J., Baker E. Parent-Teacher Relationships and Student Development. – New York: Routledge, 2018.
6. Epstein J. L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. – Boulder, CO: Westview Press, 2011.
7. McBride B. Parental Involvement in Education: Effects on Student Achievement and Well-being. – London: Sage Publications, 2011.
8. Nazarova F. Maktab va ota-onalar o‘rtasidagi konfliktlar: pedagogik va psixologik tahlil. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2019.